

5. Shodimetov K. Muqobil energiya turlari – hayotga! – T.: SHARQ NMAK, 2011.
6. Duffie J., Beckman W. Solar engineering of thermal processes. – New York: Wiley, 1991. – 919 p.
7. Kenisarin M., Mahkamov Kh. Solar energy storage using phase change materials. // Renewable and Sustainable Energy Reviews. 2007. V-11
8. Қаҳҳоров С.Қ., Самиев К.А., Жўраев Ҳ.О. Қуёш қурималаридаги жараёнларни моделлаштириш. Монография. – Т.: ITA PRESS, 2014. – 208 б.
9. Qahhorov, Jo'rayev H.O., Jamilov Y.Y., Hamdamova N.M. – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. – 300 b.
10. <https://lex.uz/sayti/ma'lumotlari>.
11. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi hisobotlari.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdaqi 2030-yilgacha "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori www.lex.uz
14. <https://kun.uz/06382097>



https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a70

SAMARQAND VILOYATIDA YONG'OQ ISHLAB CHIQUARISH VA UNING SAMARADORLIGI MASALALARI

Avezov Humoyun Ilhomovich –
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyatida yong'oq ishlab chiqarish va uning samaradorligi masalalari haqida so'z yuritilgan. Bugungi kunda Samarqand viloyatida mavjud yong'oq plantatsiyalari hamda samarali yer maydonlaridan unumli foydalanish va yong'oq yetishtirish, qayta ishlash va mahsulotlarning eksport hajmini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Samarqand viloyati, yong'oq ishlab chiqarish, samaradorlik, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot, sanoat, hosil, ishlab chiqarish, qayta ishlash, eksport.

ВОПРОСЫ ПРОИЗВОДСТВА ГРЕЦКОГО ОРЕХА И ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТИ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Авезов Хумоюн Ильхомович –
Ташкентский государственный экономический
университет, Самаркандский филиал, докторант

Аннотация. В данной статье рассказывается о производстве грецкого ореха и его эффективности в Самаркандской области. На сегодняшний день большое значение имеет эффективное использование имеющихся ореховых плантаций и продуктивных земельных площадей в Самаркандской области и увеличение объемов выращивания, переработки и экспорта продукции грецкого ореха.

Ключевые слова: Самаркандская область, ореховодство, эффективность, сельское хозяйство, экономика, промышленность, урожай, производство, переработка, экспорт.

ISSUES OF WALNUT PRODUCTION AND ITS EFFICIENCY IN SAMARKAND REGION

Avezov Humoyun Ilhomovich –
Samarkand branch Tashkent State
University of Economics, PhD student

Annotation. This article describes the production of walnuts and its effectiveness in the Samarkand region. Nowadays, the effective use of existing walnut plantations and productive land areas in the Samarkand region and an increase in the volume of cultivation, processing and export of walnut products is of great importance.

Key words: Samarkand region, walnut growing, efficiency, agriculture, economy, industry, harvest, production, processing, export.

Kirish. Mintaqadagi yong'oqchilik tarmog'i ko'plab yangi va quritilgan meva-sabzavot mahsulotlari bilan bir qatorda, asosan, eksportga yo'naltirilgan bo'lib, shu bois qishloq aholisining turmush farovonligini oshirishga hissa qo'shish imkoniyatiga ega. Milliy va mintaqaviy darajada yong'oq bozorining o'rne va ular faoliyatini rivojlantirish zaruratini

har tomonlama chuqur, mavjud manbalarni tahlil qilish asnosida o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Yong'oq ishlab chiqarishning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini hamda bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida qishloq hududlarida yong'oqzorlarni tashkil etish uslubiyatlarini o'rganishga muhim hissa bo'lib qo'shiladi. Oziq-ovqat bo-

zori uchun qishloq hududlarida yong'och mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holatini hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganish, qishloq hududlarida yong'ochchilikni rivojlantirishda investitsion faollikni rag'batlantirish imkoniyatlarini o'rganish bilan birga yong'och mahsulotlari eksportini rivojlantirish va xorijiy tajribalar asosida qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish tadqiqoti hozirga qadar amalga oshirilmagan. O'zbekiston Respublikasida yetishtirilgan umumiy yong'och hajmidagi ulushi bo'yicha Samarqand viloyati salmoqli o'ringa ega. 2019-2020-yillarda mamlakatimizda umumiy yetishtirilgan yong'och bo'lib, shundan qariyb 20 %i Samarqand viloyati hisobiga to'g'ri keladi. Viloyatda qishloq xo'jaligining barcha sohalarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va uni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarni jahon standarti talablari asosida yaratish, raqobatbardosh mahsulotlarni dunyo bozoriga olib chiqish bugungi kunning porloq istiqbolidan darak beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Yong'och ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3025-sonli qaroriga muvofiq lalmi yerlardan foydalanishni rag'batlantirish va samaradorligini yanada oshirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lgan yong'och ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish hisobiga zamonaviy yong'och plantatsiyalarini barpo qilish hamda yong'och yetishtirish bo'yicha ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, "Sag agro" va "Sam antep gilam" mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining: Yong'och ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tashkil etish, uyushma tarkibida mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida Yong'ochchilik ilmiy-tadqiqot markazi, Yong'och logistika markazi, "Sag agro MTP" MChJ, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan va Toshkent viloyatlarida hududiy "Yong'ochagro" MChJ tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yong'och ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, ularga baho berish asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish borasidagi tadqiqotlar umumiy iqtisodiy muammo sifatida mamlakatimizning qator nazariyotchi va amaliyotchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, A.Abdug'aniyev fikricha, "Iqtisod fanlarida "samaradorlik" va "iqtisodiy samaradorlik" tushunchalari mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxonalar, yo'nalishlar hamda ayrim mahsulotlar bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi samaradorlik tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga ega. Iqtisodiy samaradorlik deganda, bir yil davomida (ma'lum davrda) amalga oshirilgan tadbirlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ular natijasida olingan sof foyda summasi bilan taqqoslanadi. Shunda sarflangan xarajatlar evaziga olingan sof foyda summasi qancha ko'p bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik darajasi shuncha oshgan hisoblanadi va aksincha. Samaradorlikni esa u yoki bu tadbirlar, ishlar, mahsulotlarni yetishtirish natijasida erishilgan yutuqlar ifodalaydi" [2].

Iqtisodchi olim I.Q.Rajabov fikricha, "Samaradorlik tushunchasi ishlab chiqarish jarayoni pirovard natijalarini o'zida aks ettiruvchi iqtisodiy ko'rsatkich sifatida tushunilishi lozim. Iqtisodiy samaradorlik mohiyati nafaqat ishlab chiqarish natijalari va xarajatlar o'rtasidagi arifmetik raqamlar bilan, balki foydali natijalarga erishish yo'lida xarajatlar miqdorini kamaytirish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish, taqsimot va ayirboshlash munosabatlari orqali ifodalanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi xarajatlar va natijalar o'rtasidagi arifmetik nisbatgina bo'lmasdan, balki ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettiruvchi iqtisodiy atama..." hisoblanadi [3].

R.Husanov, Y.Dadaboyev esa: "Samara qishloq xo'jaligida o'tkazilgan u yoki bu tadbirlarning oqibati, natijasidir. Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish vositalarining va jonli mehnatning qo'llanilishidan olingan yakuniy foydali samarani, jami sarmoyalardan erishilgan natijani ko'rsatadi" deb ta'kidlashadi [4].

O.A.Shermatov samaradorlik va iqtisodiy samaradorlik to'g'risida bildirgan mulohazasida, "Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish resurslarini takomillashtirish va ulardan oqilona foydalanish tufayli erishilgan natijani shu maqsadlar uchun sarflangan jonli va buyumlashgan mehnat miqdoriga nisbati ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ifodalaydi [5]. Kishilik jamiyatida moddiy noz-ne'matlar ishlab chiqarish hayotiy zarurat bo'lib, bu jarayonda moddiy noz-ne'matlar ishlab chiqarishni ko'paytirish bilan bir qatorda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan jonli va buyumlashgan mehnat sarfini kamaytirib borish iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy omilidir.

"Samara" qandaydir bir faoliyatning natijaviyligini o'zida aks ettiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Samaraning natijasi samaradorlikda o'z aksini topadi. Samaradorlik sarflangan resurslar evaziga qancha samara ko'rilganligini o'zida aks ettiruvchi ko'rsatkichdir. Ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi samaraning (natija) sarflangan resurslarga nisbati bilan aniqlanadi. Shu jihatdan iqtisodiy samaradorlik sarflangan har bir so'mlik resurs evaziga qancha samara olinganligini aks ettiradi" degan talqinni ifoda etadi [5].

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlik kam mehnat va moddiy resurslar sarflab, atrof-muhit va ekologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda resurs sarfi miqdori hisobiga olinadigan yakuniy sof foyda miqdorida o'z aksini topadi.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xo'jaliklar daromadining o'sishiga erishishda ekinlar hosildorligi va mahsulot sifatini oshirish bilan bir qatorda resurslarni tejoychi texnologiyalardan foydalanish, qimmat va noyob resurslar iste'mol qiladigan ishlab chiqarish jarayonlarini diversifikatsiya qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yong'oq yetishtirishni rivojlantirish masalalariga ko'plab xorijiy olimlarning tadqiqotlari bag'ishlangan. Jumladan, eronlik tadqiqotchi Maxmud Baxshinejadning "Сравнительные преимущества культур семейства ореховых в Иране" nomzodlik dissertatsiyasida Eron yong'oq ishlab chiqarish va eksport qilishda mavjud nisbiy ustunlikni oshirib borish uchun yuqori salohiyatga egaligi keltiriladi. Uni moddiy texnika bazasini shakllantirish, kadrlar tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirish kabilarni o'z ichiga olgan samarali ishlab chiqarish uchun mos sharoitlarni yaratish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqish va joriy qilish maqsadga muvofiq. Qishloq xo'jaligida tabiiy ustunlik muhim ahamiyatga ega. Eron sharoitida u yoki bu ekinni yetishtirishning nisbiy ustunligini aniqlashning ahamiyati oshadi, chunki qishloq xo'jaligi, umuman olganda, qandaydir pasayish davrini boshidan kechirmoqda. Natijada dehqonlar mehnati qadrlanmay,

qishloq hududlarini tashlab ketmoqda. Yong'oq kabi ekinlarni yetishtirish uchun zarur sharoitlar yaratilganda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ishchilarni yana jalb qilish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, abstrakt fikrlash, monografik kuzatish usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar: Mintaqadagi yong'oqchilik tarmog'i ko'plab yangi va quritilgan meva-sabzavot mahsulotlari bilan bir qatorda eksportga yo'naltirilgan bo'lib, shu bois qishloq aholisining turmush farovonligini oshirishga hissa qo'shish imkoniyatiga ega. Xususan, yovvoyi yong'oq (po'choq bilan va mag'izi) savdosi Markaziy Osiyoning qishloq joylarida 100 mingdan ortiq aholining asosiy daromad manbai hisoblanadi. Yong'oq sotishdan tushgan daromad ularning yillik oilaviy daromadining 40 foizigacha to'g'ri keladi.

Juglans regia qadim zamonlardan beri odamlar tomonidan qadrlangan daraxt turidir. Juglans regianing yovvoyi navlari Markaziy Osiyoning mo'tadil va yarim qurg'oqchil tog'li hududlarida, Sharqiy va Janubiy Osiyoda, Yaqin Sharq va Kavkaz mintaqasida joylashganligi qayd etilgan [6].

O'zbekiston Respublikasida yetishtirilgan umumiy yong'oq hajmidagi ulushi bo'yicha Samarqand viloyati salmoqli o'ringa ega. 2019-2020-yillarda mamlakatimizda umumiy 146,8 ming tonna yong'oq ishlab chiqarilgan bo'lib shundan qariyb 20 %i Samarqand viloyati hisobiga to'g'ri keladi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida yetishtirilgan yong'oq miqdori haqida ma'lumot [7]

	2019 (ming tonna)	2020 (ming tonna)
Respublika	67,7	79,1
Samarqand viloyati	13,7	15,6

Shunlardan birgina Samarqand viloyatining o'zida 2019-yilda umumiy 2648 tonnasi hamda 2020-yilda 974,8 tonnasi eksportga yo'naltirilgan

[7]. Oxirgi yillarda ekilgan yong'oq maydonlari va shunga mos ravishda yong'oq yalpi hosili sezilarli o'sib bormoqda.

2-jadval

Respublika bo'yicha viloyatlar kesimida uyushma a'zolarining ekilgan yong'oq maydonlari inventarizatsiyasi (2022-yil bo'yicha)

№	Viloyat nomi	A'zolar soni	Ekilgan maydoniga
1.	Samarqand	43	2543.7
2.	Farg'ona	34	215
3.	Andijon	28	795
4.	Namangan	25	571
5.	Toshkent	30	1369.4
6.	Jizzax	47	3250
7.	Qashqadaryo	7	1121
8.	Surxondaryo	8	2022
9.	Navoiy	7	514
	Jami:	229	12401.1

Manba: <https://uzwalnuts.uz/>

Samarqand viloyati respublikaning boshqa hududlariga nisbatdan o'zining iqlim va tuproq xususiyatlari hisobiga yong'oq ishlab chiqarish uchun nisbatan qulay hudud hisoblanadi.

Ekspertlarning yong'oq bozori tahlili natijalariga ko'ra, oxirgi o'n yillikda tozalanmagan yong'oq narxining o'rtacha yillik o'sishi 8 %, tozalangani esa 10 %ni tashkil etgan. Hatto, ekzotik mahsulotlar ham narxning bunday barqaror o'sishini namoyish eta olmaydi. Bundan milliy ishlab chiqaruvchilar, afsuski, yetarlicha manfaat olmayaptilar. Bunday sharoitda iqtisodiyotning istiqbolli tarmog'ini modernizatsiyalashni ko'p kutish kerak bo'ladi. Agar moliyaviy oqimlarni ishlab chiqaruvchilar foydasiga qayta yo'naltirish hamda ichki va tashqi bozorlarni mutanosiblashtirish va narxlarni yaqinlashtirishga xizmat qiluvchi o'yin qoidalari o'zgartirilmasa, albatta.

O'zbekistondan bu mahsulotni import qiluvchi dunyoning ko'p davlatlarining o'zida ham salmoqli hajmlarda yong'oq yetishtiriladi. Ammo bizdan farqli ravishda, asosan, ichki bozorda realizatsiya qilinadi. Puldor va sog'lig'i haqida yetarlicha qayg'uradigan xalqlar unchalik sifatli bo'lmasa-da, juda arzon o'zbek yong'og'ini ishtiyoq bilan sotib oladilar. Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasining taqqoslama ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa va Fors ko'rfazi mamlakatlarida yillik yong'oq iste'moli bir kishiga o'rtacha 4,2-5,6 kg ni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich atigi 1,8-2,4 kg dan iborat.

Ekspertlardan biri muammoning mohiyatini keltirgan: "O'zbekistonda yong'oq yetarli, ammo aholida uni sotib olishga moliyaviy resurslar kam". Bu muhit ichki va tashqi bozorda narxlar tafovutini oshiradi hamda mamlakatimizdan yuqori daromadli mahsulotni har qanday yo'l bilan olib chiqishga intilishni kuchaytiradi. Jahon bozori konyunkturasi va qulay tabiiy-iqlim sharoitlari milliy yong'oqchilikni rivojlantirishga sharoit yaratadi. Ammo talab yuqori bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish va eksport qilishda O'zbekistonning o'rni barqaror emas. Bunda ishlab chiqarishdagi hamda talabchan iste'molchilarga sotishdan oldingi tayyorlash bosqichlaridagi nomutanosiblik xalaqit bermoqda.

O'zbekistondagi 18 ta uy xo'jaligida o'tkazilgan amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yig'ilgan yong'oqning deyarli 80 foizi sotilgan, atigi 20 foizi iste'mol qilingan[8], lekin bunda uy xo'jaliklari daromadiga qo'shilgan hissa berilmagan. Bularning barchasi mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan milliy va xalqaro standartlar, zamonaviy ishlab chiqarish usullaridan foydalanish, marketing va sotish amaliyotini o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda yetkazib berish zanjiri jarayonlarining ishlab chiqarish tarmoqlari va global savdoga ta'siri muqarrardir. Ushbu jarayonlarda xaridorlar muhim rol o'ynab, bo-

zorlar ular ehtiyojlarini qondirish uchun yetkazib berish vaqtini qisqartirish, mahsulot sifatini oshirish, tezkor yetkazib berish va ularning potensial talablarini hisobga olishga harakat qiladi.

Taqchil resurslarning yetishmasligi, iqtisodiy holat, ijtimoiy va ekologik ta'siri, iste'molchilarning sifatli mahsulotlarga bo'lgan talabining oshishi qaror qabul qiluvchilarni qayta logistika tarmoqlarini loyihalashni ko'rib chiqish va amalga oshirishga majbur qiladi[9]. O'zbekiston hukumati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, uning eksport raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ulkan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda, chunki u iqtisodiyotning muhim tarmog'i hamda fermerlar va ko'plab qishloq oilalari uchun muhim daromad manbayi sifatida qabul qilinadi.

Xulosa va takliflar. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqori sifatli mahsulotni faqat sanoat usulida yetishtirilgan, tanlangan navlar ko'chatlaridan olish mumkin. Hududdagi yong'oqchilik tarmog'i ko'plab yangi va quritilgan bog'dorchilik mahsulotlari bilan bir qatorda eksportga yo'naltirilgan bo'lib, shuning uchun ham qishloq aholisining turmush farovonligini oshirishga hissa qo'shish imkoniyatiga ega. Biroq potensialni ro'yobga chiqarish, bir nechta asosiy komponentlarni ko'rib chiqish kerak, ulardan biri huquqiy va me'yoriy baza, ya'ni eksport qilishdan oldin qilinadigan ishlar – xalqaro standartlarga mos ravishda mahsulot ishlab chiqarish, saralash, sifat nazorati, qadoqlash va shu kabilar.

Ikkinchisi marketing ishlari bo'lib, bunda yig'ilgan hosilni yaxshi jihozlangan korxonalarda saralash, quritish va zamonaviy shaklda qadoqlash ishlaridan so'ng yuqori potensialga ega bozor va xaridorlarga yo'naltirish. Ammo O'zbekistonda iqtisodiyotning bu sohasi yetarlicha rivojlanmagan. Yong'oq ishlab chiqarish bilan, asosan, uy xo'jaliklari shaxsiy tomorqalarida shug'ullanadi, turli tahlillarga ko'ra, bu yalpi hosilning 80-85 %dan ko'proq qismini tashkil etmoqda.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, qo'shilgan qiymat hisobiga yong'oq yetishtirishning eksport marketingi bilan integratsiyalashuvi ushbu ekinning ichki va jahon savdosida salohiyatidan foydalanishga yordam beradi[10]. Bundan tashqari ushbu sohalaridagi ilmiy tadqiqotlar sifatni yaxshilashda katta samara beradi. Sifatni yaxshilashga alohida e'tibor qaratilishi ham jahon bozorlarida yong'oq mahsulotlarining yaxshiroq narxlarda sotilishiga yordam beradi. Fermer xo'jaligi va hududlar darajasida kichik qayta ishlash bo'linmalarini tashkil etish kerak. Bundan tashqari hukumat fermerlar va xususiy yong'oq qayta ishlovchi korxonalarini arzon va qulay kredit bilan ta'minlash uchun turli institutlarni qo'llab-quvvatlashi kerak.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3025-sonli qarori. Manba: <https://lex.uz> sayti.
2. Abdug'aniyev A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi. 2004, 26-bet.
3. Rajabov I. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida agrosurslar bozori muvozanati va ishlab chiqarishning samaradorligi. Iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi. – T., 2006-y. 11-bet.
4. Xusanov R.A., Dadaboyev T.Y., Dadaboyev D.Y. Agrosanoat kompleksi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston, 2003. – 470 b.
5. Shermatov O.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida paxtachilikni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari. Iqt. fan. nom. Dis. – T.: 2006. 10-11-b.
6. Farhod A., & Humoyun A. O 'zbekistonning yong'oq ishlab chiqarish salohiyati va istiqbollari: Samarqand viloyati kesimida. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 2022, 764-769.
7. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>
8. *Livelihood implications of in situ-on farm conservation strategies of fruit species in Uzbekistan*. Gotor, Elisabetta, et al. 2278, s.l.: Springer, 2018 y., *Agroforestry Systems*, Vol. 92, pp. 1253-1266.
9. Ahrorov F., Sangirova U., Avezov H. Yong'oqni ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini (zamonaviy marketing usullarini) tashkil etish orqali aholi daromadini oshirishning obyektiv zaruriyatini asoslash. *Agro Ilm*, 2022. 118-122-b. http://qxjurnal.uz/ld/5/500_2022.pdf
10. Ahrorov F., Sangirova U., Avezov H. Hindistonning Jammu va Kashmir shtatlarida yong'oqning modernizatsiya qilingan qiymat zanjiri tajribasi. *Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi*, 2022, 7/2, 65-69.



https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a71

РИВОЖЛАНГАН ДАВЛАТЛАР МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТИДА ЕНГИЛ САНОАТ КОРХОНАЛАРИ ҲОЛАТИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Халматов Турғунбой Қўчқарович -
Андижон қишлоқ хўжалиги ва
агротехнологиялар институти
мустақил изланувчи

Аннотация. Илмий мақолада мамлакатимизда энгил саноатнинг иқтисодий ва стратегик режалаштириш, ривожланган мамлакатларда энгил саноат иқтисодиётнинг хомашё тармоғи, бу соҳа кўплаб мамлакатларда давлат бюджетининг салмоқли қисмини ташкил этиб келаётгани, ижтимоий-иқтисодий аҳамияти, меҳнатга лаёқатли аҳоли бандлигини таъминлаш ҳамда энгил саноат соҳасининг ривожланишида жаҳон тажрибаси таҳлили кенг ёритиб берилган.

Таянч иборалар: иқтисодиёт, миллий иқтисодиёт, энгил саноат, энгил саноат иқтисодиёти, аҳоли бандлиги, энгил саноат тармоқлари, тўқимачилик саноати, кийим-кечак саноати, хомашё ишлаб чиқариш, энгил саноат маҳсулотлари.

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ РАЗВИТЫХ СТРАН

Халматов Турғунбой Қўчқарович -
Андижанский институт сельского хозяйства и
агротехнологий независимый исследователь

Аннотация. В научной статье рассмотрено экономическое и стратегическое планирование легкой промышленности в нашей стране, сырьевая сеть экономики легкой промышленности развитых стран, то, что эта отрасль составляет значительную часть государственного бюджета во многих странах, ее социально-экономическое значение, обеспечение занятости трудоспособного населения, анализ мирового опыта развития отрасли легкой промышленности.

Ключевые слова: экономика, национальная экономика, легкая промышленность, экономика легкой промышленности, занятость населения, отрасли легкой промышленности, текстильная промышленность, швейная промышленность, производство сырья, продукция легкой промышленности.

ANALYSIS OF THE STATE OF LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES IN THE NATIONAL ECONOMY OF DEVELOPED COUNTRIES

Xalmatov Turgunboy Kochqarovich -
Andijan Institute of Agriculture economy and agricultural
technologies independent researcher

Abstract: The scientific article considers the economic and strategic planning of light industry in our country, the raw material network of the economy of light industry in developed countries, the fact that this industry makes up a significant part of the state budget in many countries, its socio-economic importance, employment of the working population, analysis of world experience development of the light industry.

Keywords: economy, national economy, light industry, light industry economy, employment of the population, light industry, textile industry, clothing industry, production of raw materials, light industry products.